



UDK:370.2

Jamshid OCHILOV,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali direktori,
PhD, dotsent
E-mail: j.ochilov@gmail.com*

Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent X.Djurakulov taqrizi asosida

JAMIYATGA ANTROPOGEN VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYALAR TA'SIRINING ONTOLOGIK TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat rivojlanishining keyingi tarixiy davrlarida yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar diferensiallashuvi, integratsiyalashuvi va globallashuvi jarayonlari birligining texnogen madaniyat strukturasiga jiddiy ta'siri hamda jamiyat taraqqiyotining subyektiv omillari tizimida antropogen omillarning barcha sohalarida ustuvorlashuvi bilan bog'liq ontologik talqini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Antropogen sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya, texnologik madaniyat, texnogen sivilizatsiya globallashuvi.

ОНТОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОЗДЕЙСТВИЯ АНТРОПОГЕННЫХ И ТЕХНОГЕННЫХ ЦИВИЛИЗАЦИЙ НА ОБЩЕСТВО

Аннотация

В статье анализируется существенное влияние единства процессов дифференциации, интеграции и глобализации социальных, экономических, политических и культурных отношений, возникших в более поздние исторические периоды развития общества, на структуру техногенной культуры, а также ее онтологическая интерпретация, связанная с приоритетностью антропогенных факторов всех сфер в системе субъективных факторов общественного развития.

Ключевые слова: Антропогенная цивилизация, техногенная цивилизация, технологическая культура, глобализация техногенной цивилизации.

ONTOLOGICAL INTERPRETATION OF THE INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC AND TECHNOGENIC CIVILIZATIONS ON SOCIETY

Annotation

This article analyzes the significant impact of the unity of the processes of differentiation, integration and globalization of social, economic, political, and cultural relations that have arisen in the later historical periods of the development of society on the structure of technogenic culture, as well as its ontological interpretation related to the prioritization of anthropogenic factors in all spheres in the system of subjective factors of social development.

Key words: Anthropogenic civilization, technogen civilization, technological culture, globalization of technogen civilization.

Kirish. Dunyoni o'zgartirish va tabiatni insonga bo'ysundirish g'oyasi texnogen sivilizatsiyaning ilk davridan to hozirgi bosqichigacha ustuvor bo'lib kelgan va tevarak-atrofga bo'lgan bunday faol munosabat ijtimoiy munosabatlar sohasida ham o'z ifodasini topmoqda. Jahonda texnogen, antropogen sivilizatsiyalar globallashuvi jarayonining chuqurlashuvi borasida ilmiy izlanishlarga, ayniqsa ushbu jarayonlarni ontologik yondashuv asosida tadqiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Texnogen sivilizatsiya davriga kelib, ya'ni so'ngi yillarda jahon miqyosida atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o'zgarib borayotganligi uning salbiy oqibatlari namoyon bo'layotganligi haqidagi o'ta tashvishli ma'lumotlar keltirilmoqda. "Iqlim o'zgarishlarining oqibatini Markaziy Osiyo o'tkir his qilmoqda"[1]. Iqlimning o'zgarishi tabiiy, antropogen omillar ta'sirida ro'y beradi. Antropogen omillarga esa aholining soni va uning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati tufayli iqlimiy sharoitga ko'rsatiladigan ta'siri kiradi.

Jamiyat rivojlanishining keyingi tarixiy davrlarida: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar diferensiallashuvi, integratsiyalashuvi va globallashuvi jarayonlari birligi texnogen madaniyat strukturasiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, uning antropotexnogen faoliyat yo'nalishlarini konkretlashtirdi. Hozirgi kunda esa bu jarayonlar yanada kuchayib, jamiyat taraqqiyotining subyektiv omillari tizimida – texnologik inson omilining barcha sohalarida ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo'lib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu tadqiqotda ilmiy va tahliliy metodlar qo'llanildi. Zamonaviy tadqiqotchilarning asarlari va ilmiy maqolalaridan tahlillar uchun foydalanildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari, farmon va qarorlari,

B.O.Turayev, M.X.Ergasheva, B.U.Rahmonov, Z.O.Muminova, J.A.Ochilovlar tomonidan nashr etilgan monografiya, A.N.Palenkoning («Ekologicheskiy krizis» kak psevdoproblema // Voprosi filosofii. №7. 2002. S. 71.) maqolalarining tahlili keltirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asoslarini obyektivlik, xolislik, ilmiy, tarixiy yondoshuv, qiyosiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ontologiya, gnoseologiya va mantiq masalalari bilan tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirish, jamiyatga antropogen va texnogen sivilizatsiyalar ta'sirining ontologik talqini tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Natijalar va muhokama. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniyat fenomeni paradigmalari va funksional maqomi o'zgarishlarini, yangi xususiyatlari, sifatleri namoyon bo'lishini e'tiborga olib, uning ta'riflarini "tahrir qilishni" taqozo etmoqda. Xususan, hozirgi kunda global muammolar keskinlashuvi bilan, uning ta'rifida insonning borliqni o'zgartirishi emas, balki uni qayta tiklash, barqarorligini muhofaza qilishdan iborat texnologiya madaniyati texnogen sivilizatsiyaning hozirgi rivojlanish bosqichi xususiyatini aniqlash mezonlari tizimida ustuvorlashib borishi tasodifiy emas.

Texnogen sivilizatsiya globallashuviga texnologik madaniyat ta'sirini o'rganishning asosiy maqsadi – kishilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Chunki texnologik ilmiy dunyoqarash, ularning ma'naviy qiyofasini (hatto, moddiy turmush tarzini) belgilaydi va muhim regulativ funksiyani bajaradi. Bunda texnologik madaniyatning texnogen sivilizatsiyaga ta'siri kompleks-sistemaliligi va universalligi boshqa madaniyat shakllarini integratsiyalashtiruvchi imkoniyatida namoyon bo'ladi. Bunda asosiy masala "tabiat-

jamiyat-inson" munosabatida insonning texnik-texnologik ta'sir imkoniyatini – mazkur tizim barqarorligini ta'minlovchi omilligini e'tirof etishdir. Xususan, insonning "texnologik ma'naviy sifatlarini"ni yuksaltirish orqali borliqqa antropotexnogen ta'sirini boshqarish masalasida yakdillik kuzatilmoqda. XX asrning 60-70-yillarida G'arbda tarkib topgan va rivojlangan Rim klubi "yangi gumanizm" kontsepsiyasidagi insonning ichki, shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, jamiyat transformatsiyasi va sivilizatsiyalar keyingi taraqqiyotini ta'minlashi haqidagi fikrlar "ongda inqilob yuz berishi", insonning o'z-o'zini takomillashtirishi g'oyalari asosida shakllandi.

Texnogen sivilizatsiyaning shakllanishida turli fanlarning, amaliy faoliyatlarining ekologiyalashish tendensiyalari tarixini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega[2]. Tabiatni muhofaza qilish muammolari tarixiga doir ilmiy tadqiqot ishlari miqdori ortib bormoqda, ulardan kompleks texnogen dasturlarni ishlab chiqishda qo'llanilish imkoniyatlari kengaymoqda. Boshqa tomondan, tabiat insonga, uning rivojlanishiga turli-tuman ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir kuchi (ayniqsa, insonning antropotexnogen ta'siri natijasida vujudga kelgan «noklassik» sun'iy tabiatning) aniq namoyon bo'lishi, qoldiradigan izlari va boshqalariga ko'ra turlichadir. Bu ta'sirning tabiiy yo'naltirilganligi shu bilan belgilanadiki, tabiat-kishilar hayoti va faoliyatining asosi, ular har tomonlama rivojlanishining manbaidir. A.N.Palenkoning yozishicha, «Ma'lum ma'noda, texnogen inqiroz, nafaqat energoresurslar kamyoqligi, atrof-muhit ifloslanishi emas, balki, eng avvalo, insonning uyg'onish davridan boshlab ongli ravishda shakllangan, dunyoga va tabiatga munosabatlari tizimi inqirozidir»[3]. Bu fikrga to'la qo'shilamiz.

Hozirgi davrda ilm-fan taraqqiyoti, sanoat, qishloq xo'jaligi, avtotransport, maishiy hayot infrastrukturasi rivojlanishi, aholi soni oshishi va boshqa ijtimoiy sohalar rivojlanishi tabiiy resurslardan ko'proq foydalanish texnik-texnologik asoslarini takomillashtirini taqozo qilmoqda. Natijada sivilizatsiyalarning moddiy asosi bo'lgan o'simliklar va hayvonot dunyosiga, yer osti boyliklari, tuproq, atmosfera va gidrosferaga jiddiy ta'sir etmoqda. 2017 yil Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek: "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaq mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q[4]" "Atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq xatarlarni qisqartirish, barqaror bioxilma-xillik va transchegaraviy suv resurslari masalalarida yagona yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini qayd etib, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta'minlash sohasida majburiyatlar to'g'risidagi Deklaratsiyani ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi"[1].

Texnogen sivilizatsiya globallashuvi jarayonida turli fanlarni insonparvarlashtirish (gumanizatsiyalashtirish) maqsadi doirasida integratsiyalashuvi va differensiyalashuvi, uning quyidagi asosiy tamoyillarini va rivojlanish tendensiyalarini belgilab bermoqda:

-birinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuv jarayonining tarixiy-retrospektiv asoslarini ijtimoiy munosabatlar va fanlar tizimi kontekstida kompleks-sistemali tahlil qilish ilmiy xulosalar chiqarishning asosiy shartidir. Zero, texnogen sivilizatsiyaning intellektual asoslari, bir tomondan, uning natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, keyingi rivojlanishi (itegratsiyalashuvi va differensiyalashuvi) imkoniyati hisoblanadi;

-ikkinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvi tarixi ijtimoiy munosabatlarni o'rganuvchi fanlar tarixiga bevosita aloqador bo'lib, bir tomondan, tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitar fanlarning "faoliyat taqsimoti" – differensiyalashuvi jarayonida, ularning maqomi va funksiyasi konkretlashmoqda. Ikkinchi tomondan, turli fanlarning texnogen jihatlari tarixini kompleks-sistemali o'rganish asosida yangi bilim sohalarini shakllanishi, ularning "kooperatsiyalashuviga" olib kelmoqda;

-uchinchidan, hozirgi davrda fan, texnika, texnologiya sohalar tarixiga doir tadqiqotlarning bir butun kompleksi shakllanishi va rivojlanishi xarakterlidir. Zero, bir tomondan, texnogen sivilizatsiya globallashuvi hodisasi turli fan sohalarining tadqiqot obyekti doirasiga kiritilib, ularning integratsiyalashuvini taqozo qiluvchi omilga aylanmoqda. Ikkinchi tomondan, texnogen sivilizatsiya tarixini kompleks-sistemali o'rganish jamiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlarini determinlashtiruvchi va harakatlantiruvchi motivlarni, mexanizmlarni aniqlashga xizmat qiladi;

-to'rtinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvini umuminsoniyat manfaatlariga mos yo'naltirish uchun ilmiy bilish jarayonida fundamental nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda Chunki, bir tomondan, har qanday nazariyaning ahamiyati amaliyotda qo'llanilish samaradorligini belgilovchi metodologiyada namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan, mustaxkam nazariya va metodologiyaga tayangan amaliyot yangi g'oyalar, nazariyalar vujudga kelishiga asos bo'ladi va ularning hayotiyliigi, istiqboli realligi kafolati, mezon hisoblanadi;

-beshinchidan, texnogen sivilizatsiya globallashuvining salbiy oqibatlarini oldini olishga keng jamoatchilikni jalb qilish uchun, ularni axborot bilan ta'minlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Xususan, bir tomondan, texnogen sivilizatsiya subyektlarining bu jarayonga ta'sir qilish institutsional tizimi potentsial imkoniyatlarini va intellektual salohiyati darajalarini e'tiborga olish, ikkinchi tomondan, uni ommaga transformatsiya qilishning moddiy-texnik asoslarini, targ'ibot-tashviqot texnologiyasini rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Global muammolarga umuminsoniyat texnogen sivilizatsiyasi manfaatlarini kontekstida yondashilganda, ularni bartaraf qilishning nisbatan mukammal va universal nazariy-metodologik asosi yaratiladi. Chunki har qanday fan sohasi texnogen sivilizatsiyaga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lganligidan, ularning integratsiyalashuvi umumiy nazariya va metodologiyani taqozo qiladi. Bunda asosiy masala fanlarning texnogen sivilizatsiya globallashuvida individual ta'sir yo'nalishlarini va funksional ahamiyatini zamonaviy tendensiyalar, tamoyillarga mos tarzda aniqlashdan iborat, ya'ni fanlarning texnogen sivilizatsiya bilan aloqadorligi: 1) fanlarning texnogen sivilizatsiya darajasini belgilovchi mezon maqomi ustuvorlashib, boshqa elementlarini integratsiyalashtiruvchi "intellektual makon" yaratuvchi omilga aylanmoqda; 2) texnogen sivilizatsiya ta'sirida ijtimoiy ong shakllari va fan sohalarining integratsiyalashuvini tadqiq qilish jarayonida, ularning yangi aloqadorlik jihatlari aniqlanmoqda; 3) dunyoni ilmiy bilish darajasining texnogen sivilizatsiya globallashuvi bilan taqozolanishi yangi fan sohalarini shakllanishi va rivojlanishi tendensiyasini belgilab bermoqda; 4) texnogen sivilizatsiya globallashuvi natijalarini xalqaro miqyosda transformatsiya qilish ehtiyoji, uning usullari va vositalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan fan sohalarini vujudga keltirmoqda.

Bu yo'nalishlar samaradorligi, ta'lim-tarbiya jarayonini texnogen sivilizatsiya globallashuvi tarixi kontekstida (tarixni haqqoniy yoritish talablari asosida) isloh qilishni taqozo qilmoqda. Chunki kishilarning texnogen sivilizatsiya haqida o'zlashtiradigan barcha bilimlari tarixiy xotirani, ongni tiklash va rivojlantirish jarayoni natijasi va tarkibiy yo'nalishini tashkil qiladi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya tizimida texnogen sivilizatsiya globallashuvi tarixini o'rganish asosida, (xususan, yoshlarda texnologik madaniyatni shakllantirishni) tizimli ravishda bosqichma-bosqich, uzluksiz amalga oshirish maqsadga muvofiq. Zero, bu tizimning maqsadi – yoshlarni texnogen sivilizatsiya natijalarini oqilona "seleksiya" qilib, hayotga joriy etish imkoniyatlarini reallashtiruvchi nazariy bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. "Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, kelajak avlodga ekologik muammolardan xoli bo'lgan shart-sharoit yaratib berish har bir fuqaroning burchi ekanligiga alohida e'tibor qaratilishi kerak[5]."

Bunda asosiy masala "tabiat-jamiyat-inson" munosabatida insonning texnik-texnologik ta'sir imkoniyati, tizim barqarorligini ta'minlovchi omilligini e'tirof etishdir. Turli manfaatlariga asoslangan bo'lsa ham bu kontsepsiyalarning umumiy tomoni texnogen sivilizatsiya globallashuvi salbiy

oqibatlarini bartaraf qilishda inson omili roli ahamiyatini e'tirof etishdir. Xususan, insonning "texnologik sifatlarini"ni yuksaltirish orqali borliqqa antropotexnogen ta'sirini boshqarish masalasida yakdillik kuzatilmogda. "Hech qachon unutmasligimiz lozimki, tabiiy resurslar – bu kelajak avlodlarimizga ham tegishli bo'lgan boylikdir. Shu bois, ulardan nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham o'ylab, oqilona foydalanishimiz zarur. Bu borada suvni, energiya va boshqa tabiiy resurslarni tejaydigan iqtisodiyotga tezroq o'tish muhim ahamiyatga ega. Biz uchun "yashil" va raqamli texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish vazifasi ham dolzarb bo'lib turibdi"[6]. Darhaqiqat, texnogen sivilizatsiyaning turli bosqichlarida erishilgan barcha ijobiy natijalar, (ularga pessimistik, skeptik, alarmistik yondashuvlarga qaramasdan) inson faoliyatini ongli ravishda boshqarish natijasidir. Bu esa, o'z navbatida, insonning jamiyatdagi o'z o'rnini, maqomini aniqlab, ijtimoiy munosabatlari xarakterini, maqsadlari yo'nalishlarini, qadriyati mo'ljallarini belgilab olishga yordam beradi.

Xulosa. Birinchidan, antropogen va texnogen sivilizatsiyalar shakllanishi va rivojlanishining obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari uyg'unligini ta'minlash jamiyat

barqarorligi sharti bo'lib, globallashuvi salbiy oqibatlarini bartaraf qilishga adekvatdir. Ikkinchidan, ijtimoiy ong shakllari va fanlarning rivojlanishini antropogen va texnogen sivilizatsiyalar globallashuvi kontekstida o'rganish, ularning paradigmali o'zgarishlarini va funksional ahamiyatini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi va munosabatlar konkretlashadi. Uchinchidan, insoniyatning umumiy sivilizatsiyasi tarixida antropogen va texnogen sivilizatsiyalar tarixi o'ziga xos qonunlar, qonuniyatlar, tamoyillar asosida rivojlangan va uning mazmun-mohiyati jamiyat xarakterini determinlashtiruvchi muhim omil bo'lgan va shart-sharoit yaratgan. To'rtinchidan, antropogen va texnogen sivilizatsiyalar tarixi va uning rivojlanish bosqichlari haqidagi muqobil falsafiy qarashlar, ta'limotlar masalaga muayyan manfaatlar asosida faktorial yondashishlar natijasi sifatida, umuminsoniy maqsadlar doirasida integratsiyalashuvga moyil bo'lgan. Beshinchidan, antropogen va texnogen sivilizatsiyalar globallashuvining tarixiy genezisini, retrospektiv asoslarini kompleks-sistemali tahlil qilish, umuman jamiyat rivojlanishi va uning istiqbollari haqida nisbatan mukammal va universal nazariy-metodologik xulosalarga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 12 noyabr kuni Boku shahrida o'tgan BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasidagi Jahon yetakchilari sammitining yalpi majlisida nutq <https://president.uz/uz/lists/view/7689>
2. Turayev B.O., Ochilov J.A. va boshqalar. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo'lishi. Monografiya. Toshkent: NAVRO'Z, 2017. 360 b.
3. Palenko A.N. «Ekologicheskiy krizis» kak psevdoproblema // Voprosi filosofii. №7. 2002. S. 71.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasi. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-81-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6479180>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <https://president.uz/uz/lists/view/6637>
7. Ochilov J.A. Global texnogen sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari Monografiya. Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. 160 b.